

LISON UT-TAYR

(Nasriy bayon)

I

Mehribon va Rahmli Allohning nomi bilan

Jon qushi o'z sirlarini bayon qilishga kirishar ekan, uni Allohga madhiya o'qish bilan boshlaydi. Chunki Alloh barcha mayjudotlarning yaratuvchisidir. U mangu barhayot bo'lib, undan boshqa hamma narsalar o'tkinchidir.

Yaratuvchi qudratli qalam bilan olamni aniq bir reja ostida bunyod qildi. U to'qqiz falakni aylanuvchi qilib yaratdi va buning sirini tushunishda idrokni ojiz etdi. Ko'kni tun va kun bilan yarqiratib, uni quyosh va yulduzlar bilan bezadi. Unda oy go'yo osmon tirnog'iga o'xshash bo'lib, yangi oy esa o'sha tirnog'dan olingan bir bo'lakni eslatadi.

Osmonni betinim harakat qilishga bo'ysundirdi, Yerni esa uning bo'shlig'ida tuig'un qilib yaratdi. Yer yuzini yomg'ir bilan yuvdi, natijada chang va chirkalar undan tozalandi. Quruqlikni dengiz yuzidagi kemaga monand qilib yaratdi. Tog'lardan bu kemaga uning muvozanatini saqlab turadigan langarlar yasadi. Quyosh o'tidan suv qaynab ketmasin, degan maqsadda dengiz yuziga bug'lardan parda tortdi. Suvda mayjud bo'lgan qurt va qushlar g'amini yeyishda adolat olamini ko'rsatdi. Nayson yomg'iriga katta sharaf ato etdi, uning ehsoni tufayli sadaf ichida gavhar hosil bo'ldi. Durga u juda katta qiymat bilan rivoj berdi, oqibatda u taxt ahlining toji uchun zebu ziyonatga aylandi.

Hamal oyi bilan bahorni boshlab berdi, uning o'lchovida kecha va kunduz teng boldi. Tong nasimini Iso nafasidek estirib, bog'lardagi barcha jonsiz narsalarga jon bag'ishladi. Bog'aro xilma-xil ra'no chechaklarni yoyib, chaman go'zalliklarini jilvalantirdi. Yelga huzurbaxsh hid ato etdi, uning tufayli daraxtlarga qaytadan jon kirdi. Tongni oppoq rang bilan yoritdi, shomni mushkin qora libosga o'radi. Quyoshni kunduzi porlatib, oyni kechani shamiga aylantirdi.

Agar u quruqlik yuzasida har xil g'aroyibotlarni yoygan bo'lsa, dengizda esa ular bundan ham ortiqroqdir. U dashtlarda qancha jonivorlarni yaratgan bo'lsa, suvdagi suzuvchilari bundan yuz baravar ko'pdir. Quyuni dasht aro aylantirgan bo'lsa, suv yuzida ham girdobni to'lg'antirdi.

Suvni olovga dushman qilib yaratdi, shamolni esa tuproqqa zid qildi. Yaratuvchining qudrati bilan ana shu bir-biriga zid to'rt narsa inson vujudida bir butun holda birlashdi.

Butun olamni yaratishdan maqsad Inson bo'lib, u hamma mavjudot ichida tengi yo'qdir. Inson ko'nglini turli bilimlar xazinasini qildi va bu tilsim ichida Alloh o'zini yashirdi. Insonning ajoyib jismi bir maxfiy sir xazinasini o'laroq o'zida ana shu ganj tilsimini saqlaydi. Bu tilsim jon bolib, u o'sha xazinada turadi va unga posbonlik qiladi. Ey jon! Seni bu xilda yaratilishingga cheksiz ofarin!..

Chunki U o'z sirining xazinasini ochmoqchi bo'lganida, uni na samo, na yer qabul qildi. Insondan o'zga narsalar jaholatga botib, uning xitobini anglamadi va bu sirni qabul etmadi. Shuning tufayli inson boshqa barcha narsalardan mumtoz qilib yaratildi va "Kuntu kanzan..." siridan xabardor etildi. Uning boshiga to'g'ri yo'ldan borish toji qo'yildi, sharaf me'rojiga cliiqish esa uning qismati bo'lib qoldi.

Hatto olam ichra butun malaklarga peshvo bo'lib, ularga sajdagoh bo'lgan hamda ularni o'ziga bo'ysundirgan, dunyodagi barcha jinlar va maloikalar boshlig'i vazifasini bajargan shayton, garchi u butun olamga egalik qilib, necha ming yil zuhdu toat bilan